

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI QOSHIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

---

**ISKANDAROVA GULRUX PIRMAMATOVNA**

**UMUMTA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING BOSHQARUV  
SALOHIYATINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.07-Ta'limda menejment

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Iskandarova Gulrux Pirmamatovna**

Umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini baholash va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish ..... 5

**Искандарова Гулруҳ Пирматовна**

Совершенствование механизмов оценки и развития управленческого потенциала руководителей общеобразовательных учреждений ..... 25

**Iskandarova Gulrux Pirmamatovna**

Improvement of mechanisms for evaluation and development of management potential of heads of general education institutions ..... 49

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI QOSHIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

---

**ISKANDAROVA GULRUX PIRMAMATOVNA**

**UMUMTA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING BOSHQARUV  
SALOHIYATINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.07-Ta'limda menejment

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8488 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ximmataliyev Do’stnazar Omonovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Qoriyeva Yoqutxon Karimovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudova Dilfuza Meliyevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor.

**Yetakchi tashkilot:**

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «11» 07 soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49. Tel.: (998-71) 239-01-49; faks: (998-71) 239-41-23; e-mail: [tdiu@tsue.uz](mailto:tdiu@tsue.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1711 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (998-71) 239-28-75; faks: (998-71) 239-28-75; e-mail: [tdiu@tsue.uz](mailto:tdiu@tsue.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «14» 07 kuni tarqatildi.

(2025-yil «10» 07 dagi 31-raqamli reestr bayonnomasi).



G.Q. Abduraxmonova  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djurabayev  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., dots

Sh.A. Allayorov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahon ta’lim siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biri ta’lim muassasalari rahbarlarining salohiyatini rivojlantirishdir. Xalqaro tashkilotlar va tahlillar (UNESCO, OECD, World Bank) ta’kidlaganidek, maktab rahbarining rahbarlik qobiliyati maktabning umumiyl natijadorligi, o‘quvchilarning akademik yutuqlari va o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishiga bevasita ta’sir ko‘rsatadi. Davlatlar ta’lim islohotlarida maktab rahbarlari uchun maxsus dasturlar yaratishni qo‘llab-quvvatlashmoqda. Jumladan boshqaruv salohiyatini rivojlantirish uchun Finlandiya, Buyuk Britaniya, Singapur, Kanada, Yaponiya kabi davlatlarda maxsus Leadership Training Programlar, ta’lim rahbarlari uchun National Institute of Education (NIE) maxsus yetakchilik dasturlari ishlab chiqilgan.

Dunyo miqyosida maktab rahbarlarining salohiyatini baholash va rivojlantirish — ta’lim sifatini oshirish, raqamli transformatsiyani samarali amalga oshirish, ta’limda tenglikni ta’minlashning asosiy mexanizmi sifatida qaralmoqda. UNESCO rahbarlar uchun menejment, strategiya, inqlyuziya va raqamli transformatsiya sohalarida rahbarlik salohiyatini rivojlantirishni ta’lim sifatining kafolati sifatida e’tirof etadi. UNESCO tadqiqotlari maktab rahbarlari uchun tanlov, baholash va doimiy kasbiy rivojlanish mexanizmlari joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ta’lim sohasini tubdan isloq qilish, uni zamon talablariga mos ravishda modernizatsiya qilish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ta’lim tizimidagi bu jarayonlar, avvalambor, umumta’lim muassasalari rahbarlarining yuqori darajadagi boshqaruv salohiyatiga ega bo‘lishini talab etmoqda. Chunki ta’lim muassasasi rahbarining salohiyati nafaqat pedagogik, balki strategik boshqaruv, resurslardan oqilona foydalanish, jamoa ichida samarali muloqot va qaror qabul qilish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”<sup>1</sup>da ustuvor vazifalardan “Ta’limni raqamlashtirish va samarali boshqaruvni joriy etish” belgilangan. Shu nuqtai nazardan, boshqaruv salohiyatini aniq baholash, muammolarni tahlil qilish va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish — ta’lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020 yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

to‘g‘risida” qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi:** Mamlakatimizda ta’lim muassasalarini boshqarish, ta’lim muassasasi rahbarlari boshqaruv faoliyatini tashkil etish, bo‘lajak mutaxassislarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlash, ta’lim muassasalari rahbarlari malakasini oshirish yo‘nalishlari R.X.Djurayev, M.Mirqosimov, S.T.Turg‘unov, Sh.E.Qurbonov, N.Q.Ahmedovalar, ta’lim sifati boshqaruvi muammolari R.Sh.Ahlidinov, U.I.Inoyatov, oliy ta’lim muassasalari talabalarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlash Q.O.Shodmonov, ta’lim muassasalari rahbar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muammolari M.U.Dexkanova, J.G.Yo‘ldoshev, M.A.Yuldashev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mammalakatlarida mакtab rahbarlarining professional rivojlanishi, ta’lim muassasalarida boshqaruv sifatini oshirishga doir S.G.Kosaretskiy, V.P.Toporovskiy, M.M.Potashnik, V.S.Lazarevlar; ta’lim muassasalarida yetakchilik va boshqaruv salohiyatini rivojlanish YE.V.Kazakova, G.S.Abdraxmanov, T.M.Davidenko, V.I.Zverevalar; mакtab rahbarlari uchun baholash mezonlari va rivojlanish strategiyalari A.M.Moiseyev, P.I.Tretyakov, T.I.Shamovalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Xorijlik olimlar A.Saltzman, R.Boyatzis, D.Bartram, A.Maslow, J.Rawenlar o‘qituvchilarni yetakchilikka tayyorlash orqali mакtabning umumiy salohiyatini oshirishga oid, W.Hutmacher, J.Burton, A.Becker, F.Dukes, L.Coser, G.Mead, K.Thomaslar konstruktivistik yetakchilik, o‘qituvchi yetakchiligi, ta’lim muassasalarida yetakchilik salohiyatini oshirish; E.Richards, Yu.Sazali, A.Eagly, B.Johnson, U.Lindsey, D.Laynz, P.Smitlar tomonidan ta’lim muassasalari rahbarlari kasbiy kompetentliligin rivojlanish masalalari o‘rganilgan.

Tadqiqot muammosiga oid mavjud ilmiy izlanishlar va manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda pedagog olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ta’lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlanish masalalari muayyan darajada yoritilgan. Biroq, aynan umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini baholash va uni rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish, ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli ilmiy izlanishlar yetarli emas.

Xususan, umumta’lim mакtablarining tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, mакtab rahbarlarining boshqaruv salohiyatini ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali shakllantirish tamoyillari, bosqichlari va metodik jihatlari hali to‘liq ishlab chiqilmagan.

Bundan tashqari, rahbarlar boshqaruv salohiyatini baholash va

rivojlantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalardan foydalanishning samarali yo'llari yetarlicha ilmiy tahlil qilinmagan. Ushbu masalalar bo'yicha chuqur tadqiqotlar o'tkazish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqotlar rejasining "Tizimli yondashuv asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari kasbiy kompetentliligini rivojlantirish va boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyalari" (2022-2024-yy.) mavzusidagi innovatsion tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarini boshqaruv salohiyatini baholash va uni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

### **Tadqiqot vazifalari:**

maktab rahbarlarining boshqaruv salohiyatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik modelni ishlab chiqish.

boshqaruv salohiyatini baholash va rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

taklif etilgan model va texnologiyaning samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash..

**Tadqiqotning obyekti** umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini baholash va rivojlantirish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti** umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini baholash va rivojlantirishning mazmuni, shakllari, metodlari hamda pedagogik texnologiyalari.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida muammoga doir iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy tanqidiy o'rganish va tahlil etish; umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish; sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat); pedagogik eksperiment; natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalaniladi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

umumta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini baholashning pedagogik imkoniyatlari korporativ madaniyat yelementlarni bosqichma-bosqich va vektorli yo'naltirishga qaratilgan o'zaro ichki va tashqi hamkorlikda ishlash tamoyillarining boshqaruv jarayonidagi natijadorlik darajasini intensiv oshirish asosida aniqlashtirilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirish samaradorligi milliy qadriyatlarga mos bo'lgan rahbar-xodim munosabatlarni plyuralistik tamoyilga riosa qilish ruhiyatini tarbiyalash hamda jamoatchilik ishtirokini kengroq jalg yetish asosida takomillashtirilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirish modeli boshqaruv jarayoni preventivligini ta'minlashga qaratilgan situativ transformatsiyalashning kadrlar salohiyatini oshirishga proporsional-

dinamik bog‘liq yegaligini daliliy asoslashga ko‘ra mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va javobgarlik tuyg‘usini maqsadli oshirishga ustuvorlik berish takomillashtirilgan;

umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini baholash jarayoni kreativ boshqaruv infratuzilmasini intensivlashtirish jarayonini monitoring qilish hamda istiqbolli taraqqiyot strategiyasini faktorli tahlil qilish va istiqbolli ta’limiy natijani prognostik rejlashtirish asosida takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan, ilmiy-metodik tavsiyalarni o‘z ichiga olgan “Marketing asoslari” nomli darslik ishlab chiqilgan. Mazkur qo‘llanma maktab rahbar kadrlarining boshqaruv qobiliyatlarini va intellektual salohiyatini rivojlantirishda amaliy vosita sifatida qo‘llanilgan.

Shuningdek, umumta’lim maktablari rahbar-xodimlarining kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda boshqaruv sohasidagi bilimlarini baholash imkonini beruvchi kompyuter dasturi ishlab chiqilgan va malaka oshirish tizimiga joriy etilgan.

Bundan tashqari, ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlarning intellektual salohiyati va boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan malaka oshirish tizimini joriy etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ro‘yxatiga kiritilgan mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallar, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosda tashkil etilgan ilmiy anjumanlar materiallari to‘plamlarida chop etilgan maqolalar, nashr qilinadigan uslubiy va o‘quv qo‘llanmalar, O‘zbekiston Respublikasi “Intellektual mulk” agentligi tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid dasturiy vositalar va elektron ma’lumotlar bazasi uchun berilgan mualliflik guvohnomalari, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik tahliliga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi hamda olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumta’lim maktablari rahbar xodimlarining boshqaruv salohiyatini baholash va rivojlantirish jarayonining umumdidaktik tamoyillari nazariy jihatdan asoslanganligi, ta’limni boshqarish jarayonlarida avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va vositalaridan foydalanish imkoniyatlari takomillashtirilganligi, shuningdek, taklif etilgan texnologiya, model va yaratilgan elektron o‘quv qo‘llanmaning zamonaviy didaktik vosita sifatida malaka oshirish sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, ta’lim jarayonlarini metodologik yondashuv asosida tashkil etishda, o‘quv reja va dasturlarni takomillashtirishda qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, metodologik yondashuvlar va umumdidaktik tamoyillar asosida rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-metodik ta’minot ishlab chiqilgan,

me'yoriy-huquqiy hujjatlar va tegishli dasturlar tayyorlangan, malaka oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablarini takomillashtirish, noan'anaviy usullar asosida mashg'ulotlar tashkil etish orqali malaka oshirish kurslarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish mexanizmi va metodikasi ishlab chiqilgan va dasturiy manba sifatida taklif etilgan..

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Umumta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini baholash va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingen tadqiqotlar natijalari asosida:

umumta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini baholashning pedagogik imkoniyatlari korporativ madaniyat yelementlarni bosqichma-bosqich va vektorli yo'naltirishga qaratilgan o'zaro ichki va tashqi hamkorlikda ishlash tamoyillarining boshqaruv jarayonidagi natijadorlik darajasini intensiv oshirish asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar "Marketing asoslari" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrdagi 537-sonli buyrug'i, nashr guvohnoma raqami 537-697). Natijada rahbar xodimlarning boshqaruv kompetensiyalari va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirish samaradorligi milliy qadriyatlarga mos bo'lgan rahbar-xodim munosabatlarni plyuralistik tamoyilga rioya qilish ruhiyatini tarbiyalash hamda jamoatchilik ishtirokini kengroq jalg yetish asosida takomillashtirishga oid taklifari umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari uchun tashkil etilgan seminar-treninglar mazmuniga integratsiya qilingan. (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 6-yanvardagi 05-40-56-sonli ma'lumotnomasi). Natijada rahbarlarning salohiyatini tizimli shakllantirishga xizmat qilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirish modeli boshqaruv jarayoni preventivligini ta'minlashga qaratilgan situativ transformatsiyalashning kadrlar salohiyatini oshirishga proporsional-dinamik bog'liq yegaligini daliliy asoslashga ko'ra mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va javobgarlik tuyg'usini maqsadli oshirishga ustuvorlik berish takomillashtirish taklifi "Tizimli yondashuv asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari kasbiy kompetentliligin rivojlantirish va boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyalari" (2022-2024 yy. mavzusidagi innovatsion grant loyihasi doirasida tajribadan o'tkazilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-noyabrdagi 03/42-3384-sonli ma'lumotnomasi). Natijada rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyalari va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 6 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda 1 ta darslik yaratilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa

va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining asosiy matni 136 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Dissertatsiya ishining kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbliji va zaruriyati asoslangan, ishning maqsadi, vazifalari va obyekti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati olib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini baholash va rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlarini boshqaruv salohiyatini baholash va rivojlantirishning tashkiliy-meyoriy asoslari, ularning boshqaruv salohiyatini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlarini aniqlash mexnizmlari yoritilgan. Undan tashqari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirishga asosiy yondashuvlar va tamoyillar, boshqaruv salohiyatini baholashning mohiyati va ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi ahamiyati kabi masalalar mohiyati olib berilgan.


Jahonda ta’lim tizmi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida maktab ta’limi sifatini yuqori bosqichga ko‘tarish, umumta’lim maktablari faoliyatini modernizatsiya qilish, ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarni rivojlantirish, o‘quvchilar bilimini hamda pedagoglarning malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, mavjud muammolarni o‘z vaqtida hal etish hamda maktablarning raqobatbardoshligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda umumta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish va ularning kompetentligiga qo‘yiladigan umumiy talablarni klassifikatsiyalash, maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashga oid ko‘rsatkich va mezonlarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Ta’lim muassasasi rahbar kadrlarining boshqaruv faoliyati va intellektual salohiyati mazmun-mohiyatiga ko‘ra, ma’lum bir maqsadga erishishga yo‘naltirilgan boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan vazifalarning bajarilishini, ya’ni pedagogik va ta’lim berish jarayonlari sub’yektlariga shart-sharoitlar yaratish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va ob’yektiv baholash, ta’lim muassasasi moddiy-texnik bazasini yaratish va mustahkamlab borish, pedagogik va ta’lim berish jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollantirish, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlashni nazarda tutadi.

Shunday ekan, umumta’lim maktablarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish, sifat va samaradorligini ta’minlashda subyektlar faoliyatini rejalashtirish, tashkil

etish, nazorat qilish va obyektiv baholash, rag‘batlantirish asosida muvofiqlashtirish rahbarlarning boshqaruv faoliyatini ifodalaydi. Shunday ekan, umumta’lim maktablari faoliyatini takomillashtirishda rahbarlarning boshqaruv faoliyati maktab faoliyatini rejalashtirish va ilmiy asosda tashkil etish, kadrlar tanlash, joy-joyiga qo‘yish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat muvofiqlashtirish, o‘zini o‘zi boshqarish va rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi, deb aytish mumkin.



### 1-rasm. Umumta'lim maktablari rahbarlari boshqaruv faoliyatining asosiy yo'nalishlari tizimi

Yuqorida keltirilgan vazifalarning amalga oshirish jarayonlari va mazkur jarayonlarda bajariladigan lavozim vazifalarning amaliy ahamiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, keltirilgan vazifalarni bajarish jarayonlarida umumta’lim maktablari rahbarlarining barchasi ishtirok etishi zarurligini ko‘ramiz.

Shuningdek, kadrlar tanlash, joy-joyiga qo‘yish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish yo‘nalishi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan bir necha vazifalarni qamrab oladi:

- ish bajaruvchi (kadrlar)ning qobiliyati, bilimi, ko‘nikma va malakasi, tajribasi hamda mutaxassisligiga ko‘ra vazifalar taqsimlash;
- fanlar bo‘yicha o‘quv yuklamalarni o‘qituvchilarga mutaxassisligiga ko‘ra to‘g‘ri taqsimlash;
- ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish;
- yosh o‘qituvchi va pedagog xodimlarda umummadaniy bilimlarni, milliy

va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'qituvchilar uchun uzlusiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish.

Mazkur keltirilgan qator vazifalar ham bir qarashda faqat maktab rahbariga tegishli vazifalardek ko'rinsada, ularni amalga oshirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari e'tibor qaratilsa, ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar ham maktab rahbarining o'rnbosarlari lavozim vazifalariga tegishli ekanligi o'z tasdig'ini topadi.

Demak, yuqorida keltirilgan boshqaruv faoliyati asosiy yo'nalishlari bo'yicha umumta'lim maktabining ixtiyoriy bir rahbari tomonidan amalga oshiriladigan ishlarning samaradorligi maktab faoliyati samaradorligi bilan bir qatorda, rahbarlarning boshqaruv faoliyati samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bu bog'liqlik va aloqadorlik maktab rahbarlari boshqaruv faoliyati asosiy yo'nalishlari tizimli xususiyatga ega ekanligini ifodalaydi hamda o'z navbatida maktab rahbarlari boshqaruv faoliyati asosiy yo'nalishlari bo'yicha bajarilishi zarur bo'lgan vazifalarni amalga oshirishda tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etish zaruratini belgilaydi.

Ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita subyektning, ya'ni rahbar bilan ta'lim tizimining o'zaro bog'liq faoliyati sifatida qarash mumkin. Bunday holatda rahbarning boshqaruv obyekti boshqarish va o'zini-o'zi boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lim tizimi hisoblanadi, turli xil ta'sirlar asosida boshqarilayotgan ta'lim muassasasi ham o'z o'rniда boshqaruv natijalariga va boshqaruv subyektiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim menejmenti boshqarishning maxsus qismi sifatida ana shu ikki tizim orasidagi munosabatlarni, ularning rivojlanish konuniylarini, tamoyillari, usul va uslublarini, ya'ni ta'lim muassasalari rahbarlarining faoliyatlarini tashkil etish, rejalshtirish, tartibga solish, muvofiqlashtirish, motivlashtirish hamda boshqaruv faoliyatini oqilona tashkil etish usullarini o'rganadi.

Ta'lim muassasasida boshqaruv faoliyatini tashkil etuvchi rahbarlar nafaqat pedagogik tajribaga, balki boshqaruv funksiyalari va ularning vazifalari, boshqaruv metodlari va ulardan foydalanish, boshqaruv algoritmi va uning mohiyati, boshqaruv qarorlari va ularni qabul qilish yo'llari hamda rahbarlik uslublari va ularni qo'llash kabi qator tushunchalarga ham ega bo'lmog'i lozim. Ko'rinish turibdiki, ta'lim muassasalarini boshqarishda rahbarlarga menejmentning asosiy tushunchalari, boshqaruvning maqsadi va vazifalari, zamonaviy mакtabning tashkiliy tuzilishi, strategik boshqaruv va rejalshtirish qoidalarini, zamonaviy boshqaruvning usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rgatadi.

Rahbar amalga oshiradigan boshqaruv funksiyalari quyidagilar hisoblanadi: rejalshtirish, tashkillashtirish va nazorat.

**Rejalshtirish** – boshqaruv faoliyatning boshlanishi va asosidir. Tayyor rejalar nima qachon va kim tomonidan bajarilishini ko'rsatib turadi.

Rejalshtirish o'tmishdagi rivojlanish, hozirgi sharoitlarni tahlil qilish va kelajakka real vazifalarni qo'yishni nazarda tutadi.

**Tashkillashtirish** – tizimni yuzaga keltirishdir, bunda quyidagi uch komponent: intiluvchi guruhlar, iqtisodiy munosabatlar va texnik vositalar mantiqiy ravishda bir-biriga bog‘langan bo‘ladi.

**Nazorat** – ish faoliyatini tartibga keltirish, tasniflash, hodisalarni oldindan belgilangan shakli bo‘yicha baholashdir. Nazorat yordamida ijtimoiy-psixologik obyektlar, ular uchun umumiyligi bo‘lgan xususiyatlarning yorqin darajasiga qarab (ekspert baholash) dastlabki tasniflash amalga oshiriladi.

Zamonaviy maktab direktori uchun kasbiy bilim, ya’ni boshqaruvning asosiy funksiyalari (axborot-tahlil, maqsadli-motivlashtirish, oldindan ko‘rish, rejulashtirish, tashkiliy-ijrochilik, nazorat-tashxis va tartibga solish muvofiqlashtirish)ni innovatsion boshqaruv texnologiyalari va metodlaridan foydalanish, ularni amaliyotga tatbiq etish orqali ta’lim-tarbiya jarayonini boshqara oladigan mahoratli direktorga xos bo‘lgan kasbiy pedagogik tushunchalar zarur. Ularni o‘zlashtirmasdan boshqaruv faoliyati bilan shug‘ullanish maqsadga muvofiq emas. Shunday ekan direktor shaxsi strukturasini uch asosiy: innovatsion faoliyat, boshqaruvda kompetentlilik va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlar kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy maktabning rivojlanish jarayonini o‘rganishda direktorning shaxs sifatidagi o‘rnini ham hisobga olish zarur. Boshqaruv ko‘nikmalari rahbarning psixologik xususiyatlari, hissiy-irodaviy sifatlari, ijodiy fikrashi, intellektual qobiliyati bilan uzviy bog‘liq. Bular shaxsning integrativ xususiyatlari bo‘lib, murakkab tizim hisoblangan psixologik va amaliy harakatlarning o‘zlashtirish tezligi, sifati va samaradorligini belgilaydi. Qoidaga ko‘ra, bular ta’lim olish hamda tushunchalar asosida shaxsiy tajriba orttirish jarayonlarida shakllanadi.

Umumta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini quyidagi faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholashimiz mumkin (1-jadval):

KPI tizimi asosida baholashda birinchi navbatda mezonlar ishlab chiqiladi. Ishlab chiqilgan mezonlar bo‘yicha monitoring olib boriladi. KPI tizimi asosida baholashda ma’lum bir muddatda olingan natijalar taqqoslanadi.

Baholash mezonlariga ko‘ra umumta’lim maktab direktorlari boshqaruv faoliyat samaradorligi(BFS)ni quyidagi formula orqali aniqlanishi mumkin:

$$BFS = \frac{B_0}{B_{max}} * 100\%$$

bu yerda: direktor to‘plagan ball, direktor to‘plashi kerak bo‘lgan maksimal ball.

Agar:  $BFS > 70\%$  bo‘lsa, maktab direktorning BFS ligi maqsadga muvofiq;  $70\% > BFS > 55\%$  bo‘lsa, direktorning BFS qoniqarli;  $BFS < 55\%$  bo‘lsa, direktorning BFS past darajada degan xulosaga kelinadi.

Natijalarga ko‘ra ya’ni samaradorlikning muhim ko‘rsatkich (KPI)lariga qarab ta’lim muassasasini rivojlantirish rejalarini tuziladi, qarorlar qabul qilinadi, maktab direktori faoliyat yo‘nalishidagi ehtiyojlarini to‘ldirish maqsadida o‘z ustida ishslash rejalarini tuzib oladi.

1-jadval

## **Umumta’lim məktəb direktorları boshqaruv faoliyat samaradorligini mezonlar asosida baholash ko‘rsatkichlari**

<b>№</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Baholash parametrlari</b>
1.	Umumta’lim muassasasining oliv ma’lumotli pedagog kadrlar bilan ta’minlanganligi	Fanlar bo‘yicha ta’minlanganligi (5 ball): 70% - 1 ball 85% - 3 ball 100% - 5 ball
2.	Rahbar tomonidan xodimlarning samarali mehnat qilishlari va o‘quvchilarning sifatli ta’lim olishlari uchun shart- sharoitlarning yaratilganligi	So‘rovnomalas asosida (5 ball). 70% - 1 ball 85% - 3 ball 100% - 5 ball
3.	Umumta’lim muassasasini boshqarishning ochiqligi, uni boshqarishda ta’lim oluvchilar, ota-onalar va keng jamo- atchilik fikri inobatga olinishi	Ijtimoiy so‘rovnama (5 ball). 70% - 1 ball 85% - 3 ball 100% - 5 ball
4.	Rahbarning ta’limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, rahbarlik qobiliyati, kasbiy va lavozim vazifa- larida belgilangan vazifalar bo‘yicha bilimini aniqlash	Savolnoma (10 ball). 55% gacha – 3 ball 85% gacha – 7 ball 100% - 10 ball
5.	Umumta’lim muassasasi bitiruvchilarining oliv ta’- lim muassasalariga kirish imtihonlarida qayd etgan ko‘rsatkichlari	Respublika bo‘yicha kirish imtihonlari o‘rtacha ballga nisbatan (10 ball): yuqori bo‘lsa - 10 ball bir xil bo‘lsa - 5 ball past bo‘lsa - 3 ball
6.	Umumta’lim muassasasi o‘quvchilarining o‘quv fanlarini dav lat ta’lim standartlariga muvofiq o‘zlashtirish darajasi	O‘quvchilarning samaradorlik ko‘rsatkichlari (10 ball): 70% - 3 ball 85% - 5 ball 100% - 10 ball
7.	Umumta’lim muassasasi reytingi ko‘rsatkichlari	O‘tgan yilga nisbatan (5 ball): o‘sgan bo‘lsa - 5 ball o‘zgarmagan bo‘lsa - 3 ball past bo‘lsa - 0 ball
8.	Umumta’lim muassasasida budjetdan tashqari qo‘sishma mablag‘ topishning yo‘lga qo‘yilganligi	O‘tgan yilga nisbatan (5 ball): Ko‘p bo‘lsa - 5 ball O‘zgarmagan bo‘lsa - 3 ball Kam bo‘lsa - 0 ball
9.	Umumta’lim muassasasida direktor jamg‘armasi va byud- jet mablag‘laridan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari	Samarali foydalanganligi(5 ball): foydalangan bo‘lsa- 5 ball) qisman foydalangan bo‘lsa - 3 ball foydalanmagan bo‘lsa - 0 ball
10.	Məktəb ma’lumotlarini axborot tizimlarida o‘z vaqtida yuritilishi	Ma’lumotlarni o‘z vaqtida kiritilishi (10 ball): muddatidan oldin - 10 ball o‘z vaqtida - 5 ball muddatidan so‘ng - 3 ball

Ta’lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatidagi samaradorligi ta’lim muassasasining umumiy faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Umumta’lim məktəb direktorları boshqaruv faoliyati yo‘nalishlarini to‘g‘ri tahlil qilishi lozim. Boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash natijalariga ko‘ra ta’lim muassasasi rahbarlari o‘z ustida ishslash, muntazam kasbiy mahoratini oshirib borishi, ta’lim muassasasining to‘g‘ri va istiqbolli rejalarini tuzishda

muhim ahamiyatga egadir.

Umumta'lim maktab direktorlari boshqaruv faoliyat samaradorligini oshirishda quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- ✓ boshqaruv faoliyatini to'g'ri tashkil qilishda faoliyat yo'nalishlari, boshqaruv metodlari, rahbarlik uslublarini aniqlash va ilmiy asosda olib borish;
- ✓ maktab direktorlari faoliyatini o'zi tomonidan tahlil qilishi hamda aniqlangan natijalarga ko'ra bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishi hamda shaxsiy imkoniyatlarini kengaytirish dasturini mustaqil yaratishi uchun o'zini-o'zi baholash jarayonlarini tashkil etish;
- ✓ samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari natijasiga ko'ra, ta'lim muassasasi rahbarlari o'z faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali faoliyat yo'nalishidagi bo'shliqlar ustida ishlashi;
- ✓ baholash natijalariga ko'ra ta'lim muassasasi imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda maqsadga erishishda to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish ishlarini olib borish va hakazolarga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Mazkur tadqiqot ishida boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash bo'yicha tahlillar natijasida umumta'lim maktab direktorlarining faoliyat samaradorligini baholashning asosiy mezonlari va parametrlarini aniqlashga harakat qilindi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **"Umumta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirish texnologiyasi"** deb nomlangan. Mazkur bobda ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida mакtab rahbarlari shaxsiga qo'yiladigan umumiyl talablar, umumiyl o'rtalim mакtablari rahbarlarini boshqaruv salohiyatini rivojlantirish jarayonini modellashtirish hamda malaka oshirish jarayonida ularning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari bayon qilingan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida rahbar kadrlarning intellektual salohiyati va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish eng yangi raqamli va axborot texnologiyalarini yaratishni taqozo etadi. Bunday sharoitlarni ta'minlash va yaratish uchun professional kadrlar zarur, shuning uchun raqamli iqtisodiyotning asosiy yo'nalishi kadrlar tayyorlash, ya'ni rahbar kadrlarning ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, korxonalarining ilmiy-texnika zaxiralarini rivojlantirish zarur.

Boshqaruvda kompetentlilik ta'lim muassasasi rahbar-kadrlarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. Mazkur salohiyatni ta'lim muassasasi rahbar kadrlari boshqaruv faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqaruv faoliyati jarayonining holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Umumta'lim muassasasini boshqarishning o'ziga xosligi –ta'lim muassasasi boshqaruvini ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirish, rahbarlik uslublaridan oqilona foydalanish, boshqaruv tamoyillarini o'zlashtirish va qo'llash, boshqaruvni ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish va


takomillashtirishga yo‘naltirish asosida belgilash, shuningdek, belgilangan maqsadga erishish yo‘nalishidagi vazifalarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etuvchi axborot-tahlil, oldindan ko‘rish-rejalashtirish, tashkiliy-ijrochilik, nazorat va tartibga solish kabi funksiyalarini amalga oshirish jarayonida aniqroq ifodalanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uning natijaviyligini ta’minlash, ta’lim muassasasi faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Mazkur funksiyalarini amalga oshirishda rahbarlarning demokratik tamoyillarga asoslanishi, barcha ta’lim ishtirokchilarini boshqaruv jarayoniga jalb etilishi, yuqori samaradorlikka erishishda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlari boshqaruv salohiyati samaradorligini oshirish jarayonlarini modellashtirishda boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish jarayonlari sifatida umumta’lim mакtabida tashkil etiladigan o‘quv seminarlari, seminar-treninglar, ochiq darslar, o‘zaro dars kuzatishlar, fan kechalari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ilg‘or pedagogik texnologiyalarini ommalashtirish, malaka oshirish institutidagi nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni hamda masofadan o‘qitish jarayonlarini, shuningdek, umumta’lim mакtabi rahbarlari uchun tashkil etiladigan markazlashtirilgan seminar-trening jarayonlarining tizimga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Umumta’lim mакtabi rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish jarayonlarini modellashtirishda uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar, ta’lim boshqaruvi xususiyatlarining o‘zgarib borishi, rivojlanib borayotgan davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari, rivojlanishlarga bog‘liq holda kun sayin o‘zgarib, yangilanib va rivojlanib borayotgan zamonaviy talablarga asoslanish kerak.

Modellashtirishda umumta’lim mакtabi rahbarlarining kasbiy kompetentlilagini rivojlantirish jarayonlarining barcha shakllarini o‘zaro bog‘liqligi, aloqadorligi va uzviyligini ta’minlash zarur. Modelni shakllantirishda belgilanadigan bosh maqsad, umumta’lim mакtabi rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishdan iborat bo‘lib, oldingi paragraflarda keltirganimizdek, umumta’lim mакtabi rahbarining boshqaruv faoliyati samaradorligi uning boshqaruv yo‘nalishidagi bilimi, ko‘nikma va malakalariga hamda tajribasiga bog‘liq bo‘lishi bilan bir qatorda, uning shaxsiy xislatlari, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlari va qobiliyatiga ham bog‘liq bo‘ladi.



**2-rasm. Umumta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini baholash va rivojlantirish modeli**

Mazkur modelda maqsadga ko‘ra belgilangan vazifalarni amalga oshirishda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan obyektlar sifatida umumta’lim maktabi rahbarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kasbiy kompetentlilik komponentlari keltiriladi, ya’ni umumta’lim maktabi rahbarlarining kasbiy kompetentlilikini rivojlantirishda, eng avvalo, rahbarlarda umuminsoniy xislatlar, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlar va boshqaruvchi uchun zarur mahorat va qobiliyatlarni shakllantirish hamda rivojlantirishning zaruriyatiga e’tibor qaratildi.

Demak, umumta’lim maktabi rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish uchun ularda kasbiy kompetentlilikni shakllantirish va rivojlantirishda boshqaruv yo‘nalishidagi tushunchalar bilan, ya’ni ta’lim menejmenti fanini o‘rgatish bilan bir qatorda, pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari va yangiliklarini chuqur o‘rgatish ham muhim ahamiyatga ega.

Chunki, boshqaruv faoliyati bilan shug‘ullanayotgan umumta’lim maktabi rahbarlarida pedagogik mahorat, didaktik qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, perseptiv qobiliyat, umuminsoniy xislatlar, ehtirosli xislatlar, axloqiy xislatlar, ishbilarmonlik xislatlari yo‘nalishidagi tushunchalar, bilim ko‘nikma va malakalar pedagogika va psixologiya fanlaridan tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda, tashkilotchilik qobiliyati, kasbiy mahorat, kasbiy tajriba, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlar bo‘yicha tushunchalar, bilim ko‘nikma va malakalar ta’lim menejmenti fanidan tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda va mustaqil ta’lim jarayonida hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida shakllanadi va rivojlanadi.

Shuningdek, modelda rahbarlarda shakllantirilishi va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan mazkur komponentlar umumta’lim maktabi rahbarlarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonlarida amalga oshirilishiga alohida ahamiyat qaratiladi.

Taklif etilayotgan modelda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, fan va texnika yutuqlari, yaratilayotgan yangiliklar, rivojlanib borayotgan davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari va zamonaviy talablarni o‘rganish, ta’lim muassasasi faoliyatining rivojlanish moyilligini aniqlash va takomillashtirish yo‘nalishidagi vazifalarni belgilash ham uning komponentlari sifatida keltirilgan bo‘lib, bular qayta aloqani ta’minlash, ya’ni umumta’lim maktabi rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini yanada oshirish, davlat, jamiyat va shaxsning rivojlanib borayotgan ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish uchun yangi vazifalar belgilash va amalga oshirishga xizmat qiladi.

